O'QITUVCHINING PEDAGOGIK ODOBI VA O'QUVCHILAR BILAN MULOQAT MADANIYATI.

Raxmatulloyeva Xosila Baxtiyor qizi
Boshlang‘ich ta’lim o'qituvchi va
Buxoro Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola ,,O'qituvchi foaliyatida pedagogik odob va o'quvchilar bilan muloqat masalalariga bog'shlangan bo'lib . Bunda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari ,o'qituvchining o'quvchiga tasiri momila odobi , o'quvchilar bilan dars jarayonida muloqat odob,,iga bog'shlanadi.

Kalitta so'zlar: Pedagogik odob , mahorat , jamiyat , o'quvchi , rag'bat, o'qituvchi , Konfutsiy , Lev Tolstoy , qobiliyat , tarbiya , odob , dars, muloqat , momila, tarbiya .

Pedagogik odobi pedagogik mahoratning shakllanishida eng muhim vositalardan biri bo‘lib, u pedagogik faoliyatning asosiy quroli hisoblanadi. Pedagogik odob bu eng avvalo, uning jamiyat bilan ,o'quvchilari , ularning ota-onalari yaqinlari , birgalikda foaliyat olib borayotgan hamkasblari jamosi, rahbariyat bilan , kasbiy-axloqiy muloqat qila olish qobiliyati hamdir. Bu muloqot qilish odobi o'qituvchi uchun butun foaliyati jarayonida muhim va asosiy vazifa sifatida xizmat qiladi. O‘qituvchining o‘z o‘quvchilarini, ularning fe’l-atvori, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini, turli voqealarga, muomalalarga va hokazolarga munosabatlarni doimo o‘rganib va bilib borishga intilishi muhimdir, sababi mahoratli pedagok shunga qorab o'z o'quvchilari bilan o'zaro momila madaniyatini yo'lga qo'yadi. Pedagogik odob bu - o'qituvchining o'quvchiga nisbatan pedagogik maqsadga yo'naltirilgan ,samarali muloqat o'rnata olish qobiliyati hamdir. O‘quvchilar bilan o‘z munosabatlarini, muomalasini shovqun,baqiriq va mayda-chuyda narsalarga aralashishga aylantirib yubormaslik uchun kundalik ishlarda nimanidir sezmay qolishga o‘rganishi muhimdir. Sabab o'qituvchi o'quvchi ishda hadeb ayib topishi yoki bo'lar bo'lmasga unga baqirish daki berish ”Nega muncha

qimirlaysan, stulning mihi bormi?" kabi tanbehlar , . Ba'zan jahli chiqib, jazavaga tushgan o'qituvchi butun sinf oldida o'quvchini ayblarini aytish ularni uyaltirish kerak emas, bu metodlardan o'z o'rnida va joyida foydalanish maqsadga mofiq sanaladi. Agarda darsda ko'p shovqun ko'taradigan darsga xalaqit qiladigan o'quvchi bo'lsa ham u bilan muloqatni to'g'ri yo'lga qo'yshi uni u bilan munosabatini shaklantirishi kerak. Milodan avvalgi 551-479 yilarda yashab o'tgan buyuk faylasuf Konfutsiy shunday degan ,, Eskiga murojat qilib , yangini kashf eta olgan kishigina o'qituvchi bo'la oladi,, . Bu borada o'qituvchi o'quvchibing eski salbiy hisslatlarini yo'qotib uda yangi ijobiy hislatlarni yuzaga chiqara olshi kerak hisoblanadi. Pedagog odobi tushunchasi o'qituvchi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Unda insonning kasbiy barkamolligi ijtimoiy taraqqiyotning oliy ne'mati va mezoni hisoblanadi. O'qituvchining muomala madaniyati, odobi uning o'quvchilar bilan birgalikdagi turli faoliyati ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, darsda, sinfdan tashqari ishlar jarayonida yoki kundalik hayotda. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqatni to'g'ri yo'lga qo'yshi o'quvchi ro'hiyati bilan ishlashi uni darsga jalb qila olishi . O'quvchilar savollariga javob berish vaqtida o'quvchi javob berayotganda ochiq chehra bilan ma'qullab turish, qo'llab – quvvatlash lozim. O'quvchining javobini turli izohlar bilan bo'lib turish maqsadga muvofiq emas. Agar o'quvchi javobi noto'g'iri bo'lsa o'quvchi javob berishni to'xtatgach o'qituvchi uning javobini to'g'rlashi kerak . O'quvchilar bilimini baholash jarayoni ham o'qituvchi odobining namoyon bo'lishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ba'zan baholash jarayonida o'qituvchi bahoni shunday izohlaydiki, go'yo yahshi bahodan ham qoniqmaganday: "Sen meni hayron qoldirding. Senga yahshi baho qo'yishga majburman". O'quvchini maqtab o'tish kerak bo'ladi yani bu o'quvchiga matvatsiya beradi. Vaholangki, bunday paytda o'qituvchi bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchisining yahshi javobidan chin dildan quvonishi uning uchun haqiqatda qayg'urishi lozim. O'quvchiga bugun darsda yaxshi qatnashganligi bundan keyin bundanda yaxshi harakat qilishini takahashi kerak. Ahir bu ham muomala san'atini belgilaydi. Lev Tolstoy shunday degan,, o`qituvchifaqat o`z ishinigina

yaxshiko`rsa, u yaxshio`qituvchi. Agar o`qituvchi o`quvchisini xuddi o`z bolasidek sevsa, u tarbiya haqidagi barcha kitoblarni o`qigan, ammo o`quvchini ham, kasbni ham sevmaydigan o`qituvchidan yaxshiroqdir. Kimki, o`zida ham kasbga, ham. o`quvchiga nisbatan. muhabbatni. mujassamlashtira olsa, u mukammal o`qituvch ,, deya takdlaydi .To'g'ri muomala uslubini shakllantirishda sabr–toqatlilik, o'zini boshqara olish; adolatlilik boshqalarning tajribasiga ijodiy yondashish, pedagogik texnikani rivojlantirish kabilar muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchi doimo o'quvchisidagi insonni hurmat qilishi va o'z qadr–qimmatini saqlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Karimov. Yuksak ma`naviyat engilmas kuch. T. Sharq 2008.
2. A .Xliqov . Pedagogik mahorat Toshkent ,,IQTISOD-MOLIYA,, 2011.
3. Umummiy Pedagogika fanidan o'quv uslubiy majmua .